

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasining falsafiy tahlili	33
---	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--



UO'K: 331.101:338.24

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY ZARURATI VA AHAMIYATI**СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА****THE SOCIO-ECONOMIC NECESSITY AND SIGNIFICANCE OF DEVELOPING HUMAN CAPITAL****Qosimov Fayzullajon Sa'dullayevich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, (PhD)

Annotatsiya

Maqolada inson kapitalining jamiyat iqtisodiy rivoji uchun muhim resurs hisoblanishi, har bir jamiyatning moddiy, ma'naviy va intellektual salohiyatini belgilashi hamda uni rivojlantirish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan bir qancha muhim sabablarga ega ekanligi, ta'lim va kasb-hunar ta'limi orqali insonlar o'z salohiyatlarini oshirishi va bu orqali yuqori malakali mutaxassislar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam bera olishi va innovatsiyalar yaratishda qatnashishi tahlil qilingan.

Аннотация

В статье подробно рассматривается, что человеческий капитал является важным ресурсом для экономического развития общества, определяет материальный, духовный и интеллектуальный потенциал каждого сообщества, а также играет важную роль в обеспечении социальной стабильности. Также проанализированы социально-экономические причины необходимости развития человеческого капитала. Подчеркивается, что через образование и профессиональное обучение люди могут повышать свой потенциал, что способствует росту производительности высококвалифицированных специалистов и участию в создании инноваций.

Abstract

This article thoroughly explores the idea that human capital is a crucial resource for the economic development of society. It determines the material, spiritual, and intellectual potential of each community and plays an important role in ensuring social stability. The article also analyzes the socio-economic reasons behind the need to develop human capital. It emphasizes that through education and vocational training, individuals can develop their capacities, which contributes to increasing the productivity of highly qualified specialists and participating in the creation of innovations.

Kalit so'zlar: inson kapitali, iqtisodiyot, ijtimoiy barqarorlik, inson salohiyati, innovatsiya, investitsiya, intellektual kapital, inson qadri.

Ключевые слова: человеческий капитал, экономика, социальная стабильность, человеческий потенциал, инновации, инвестиции, интеллектуальный капитал, достоинство человека.

Keywords: human capital, economy, social stability, human potential, innovation, investment, intellectual capital, human dignity.

KIRISH

Inson kapitalining rivojlanishi har qanday jamiyat uchun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosidir. Bilimli, ko'nikmalarga ega bo'lgan aholi mamlakatning raqobatdoshligi va barqarorligi uchun kutilgan natijalarni berishi mumkin. Shu bois davlat tomonidan inson kapitalini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishining ahamiyati kattadir. U har bir jamiyatning moddiy, ma'naviy va intellektual salohiyatini belgilaydi. Inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan bir qancha muhim sabablarga ega. Jumladan, inson kapitali, ya'ni odamlarning bilim, ko'nikma va malakasi, iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida "inson qadri" tamoyili asosida ijtimoiy davlatni shakllantirish, "dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishiga erishish ilm-fan, ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish orqali jamiyatda inson kapitalini yuksaltirish" davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi [1. 64].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

FALSAFA

Inson kapitali iqtisodiy innovatsiyalarni yaratuvchi asosiy manba hisoblanadi. Inson kapitalining rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki ma'naviyat sohasida ham muhimdir. Ta'lim sohasida olingan bilimlar insonlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ma'naviyat darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda odillik, tenglik va huquqlarga hurmat qilish kabi qadriyatlar ustuvor bo'ladi. Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati to'g'risida xorijiy va o'zbek tadqiqotchilari o'z izlanishlarini olib borganlar. G'arb faylasuflaridan G.Bekker [2], T.Shuls [3], M.Bloug [4], L.G.Simkina [5], Yu.A.Korchagin [6], I.V.Skoblyakova [7] hamda M.Abdullayeva [8], G.G'affarova [9], M.Sharipov [10] kabi o'zbek olimlari inson kapitalini rivojlantirishda raqamlashtirish va milliy qadriyatlarning ahamiyatini, intellektual inson kapitalining mohiyati va xususiyatlari, sog'liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalarini falsafiy tahlil etishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inson kapitali iqtisodiy innovatsiyalarni yaratuvchi asosiy manba hisoblanadi. Odamlarning bilimlari va ko'nikmalari yangi g'oyalar paydo qilishga yordam beradi, bu esa iqtisodiyotning dinamik rivojiga olib keladi. Innovatsion loyihalar amalga oshirilganda ko'pincha inson resurslari markaziy rol o'ynaydi. Bir so'z bilan aytganda, inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ajralmas ahamiyatga egadir. Bu jarayon har bir davlat uchun strategik vazifa bo'lib xizmat qiladi, chunki u faqatgina iqtisodiy o'sishni ta'minlab qolmay, balki ijtimoiy barqarorlik va ma'naviyat darajasini ham oshiradi. Shu bois ta'lim tizimlari haqiqatan ham davlat siyosatida birinchi o'rinda turishi kerak, chunki ular kelajak avlodining salohiyatini shakllantiradigan asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda inson kapitalini rivojlantirish uchun turlicha yondashuv va metodologiyalardan foydalanish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish paradigmasi takomillashtirilmoqda. "Inson kapitali nazariyasiga asoslanib Shvetsiya 2000-yillarda o'z iqtisodiyotini modernizatsiya qildi va jahon iqtisodiyotida yetakchilikni tikladi. Tarixiy qisqa vaqt ichida Finlyandiya o'zining asosiy tabiiy boyligi - o'rmonlarni chuqur qayta ishlashdan voz kechmasdan, birinchi navbatda, xom ashyo iqtisodiyotidan innovatsion iqtisodiyotga o'tishga va o'zining raqobatdosh yuqori texnologiyalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi [11]. Umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligi reytingida dunyoda birinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, ular o'zlarining innovatsion texnologiyalari va mahsulotlarini yaratishda yog'ochni yuqori qo'wimcha qiymatga ega bo'lgan tovarlarga qayta ishlashdan olinadigan daromadlar asosida yaratdilar.

Inson kapitalining o'zagi albatta inson bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Hozirgi vaqtda inson kapitalining o'zi mamlakatlar, mintaqalar, tashkilotlar milliy boyligining asosiy ulushini belgilaydi. Darhaqiqat, inson kapitali kelajakda katta daromad olish maqsadida ta'lim, sog'liqni saqlash, migratsiya va boshqa faoliyat sohalariga sarmoya kiritish. Ushbu kiritilgan sarmoyalar natijasida inson kapitalining turli xil shakllari paydo bo'ldi. Ilmiy adabiyotlarda inson kapitali turlarini tasniflashda turli sabablarga ko'ra va maqsadlarda amalga oshirilgan. Deyarli barcha xorijiy tadqiqotchilar haqiqat (real) va intellektual kapitalning hal qiluvchi rolini tan olishgan.

Xorijiy iqtisodiy ilmiy adabiyotlarda inson kapitali turlarini inson kapitaliga investitsiyalar turlari bo'yicha ajratadilar. G.Shuls fikricha, insonning qobiliyatlari "investitsiya atributlariga ega bo'lgan ayrim faoliyat turlari orqali rivojlanadi" [12]. Bunday investitsiya faoliyati maktab ta'limi, ish joyida o'qitish, sog'liqni saqlashni mustahkamlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda milliy inson kapitali mavjud bo'lib, "mamlakatning milliy boyligining ajralmas qismi bo'lgan inson kapitalidir" [13]. Shunday ekan, inson kapitali bir nechta parametrlarga bog'liq funktsiya sifatida ifodalanishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar asosida inson kapitali turli mezonlarga ko'ra tasniflanganini aytishiz mumkin: Harajat elementlari bo'yicha: *ta'lim kapitali*; *sog'liqni saqlash kapitali*; *axborot kapitali*. Ko'payish jarayoni bilan bog'liq ko'rinishlari: *iste'molchi*, *ishlab chiqaruvchi*; *intellektual*.

Shuningdek, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda "inson kapitali, uni shakllantirish va rivojlantirish omillari, inson kapitali tarkibiy elementlarining o'zaro munosabati, inson kapitalini rivojlantirishning jamiyatga ta'sirini aniqlash" [14] hamda uning ijtimoiy-falsafiy muammolarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Vaholanki "bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda" [15]. Shunday ekan inson kapitalidan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridir.

Ma'lumki, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Finlandiya, Buyuk Britaniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda [16] inson kapitali asosiy boylik va eng qimmatli manbai,

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezonini hisoblanadi. Ayniqsa, inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish, uning ijodiy fazilatlarini va qobiliyatlarini, inson kapitaliga sarmoya kiritish masalasi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biridir.

Xususan, rivojlangan mamlakatlarda milliy boylikdagi inson kapitalining ulushi 80 foizgacha tashkil etadi. Shu jihatdan ham jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga yangilanayotgan O'zbekistonda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish mexanizmlarini yaratish, inson qadrini ulug'lash va bu orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Zero, "jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari" [17] belgilanib va shu asosda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqilishi ham masalaning qanchalik dolzarb ekanligini ko'rsatib beradi.

Bugungi kunda yangi O'zbekiston taraqqiyoti "ma'rifatli jamiyatni shakllantirish"ga asoslanadi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham **"har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta'lim tizimida byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash, Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish, 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish, malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish va oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish hamda «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish"** [18] kabi maqsad va vazifalar belgilangan. Shu bois ham yoshlarni kitobxonlik, tasviriy san'at, musiqa va umuman ijodiy faoliyatga undovchi yetarli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, erkin, mustaqil va istiqbol sari intilgan jamiyat, vatan uchun fuqarolari uchun go'zallik timsoli. Uni go'zallashtirish va unga xizmat qilish uchun go'zallikni ijtimoiy hodisa, insonni ulug'laydigan ne'mat deb tushunadigan kishilar kerak. Ana shuning uchun go'zallik bilan odamlar tarbiyalanadi, nafosat ko'nglida gullagan inson o'z xalqi, vatani mustaqilligi, erki va istiqboli yo'lida bajonidil mehnat qiladi. Bu esa, har bir insonning asl salohiyatini namoyon qilish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida daromadlarini ko'paytirish, kishilarning imkon qadar ko'proq ish haqi olishlari va oziqlanish ratsionlarini yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratish zarurati ortib bormoqda. Aholi daromadlarining ortishi rivojlanishning qolgan barcha maqsadlariga oid ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jahon banki tomonidan tayyorlangan 2003 yilgi "Turmush darajasini baholash" ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining 26,2 % kundalik oziqlanish ratsionining yaxshilanishiga muhtoj. Bular, asosan, janubiy viloyatlarning uncha katta bo'lmagan shaharlarida va Qoraqalpog'istonda yashovchi oilalardir. Orol dengizi qurib borayotganligi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik oqibatlar bu muammoni yanada ildiz otishiga sabab bo'lmoqda.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami yani "kam ta'minlangan oilalarga ko'mak ko'rsatish" [19] nafaqa to'lashning maqbul tizimini ishlab chiqish, maqsadli tarzda byudjet mablag'larini sarflanishini ta'minlash choralarini ko'rish zarur. Bugungi kunda "Birlashgan millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarish inson taraqqiyoti rivojlanishining asosiy omili sifatida baholanmoqda" [20] O'zbekistonda kam ta'minlanganlik va qoniqarsiz oziqlanishning oldini olish uchun ayni vaqda, ijtimoiy nafaqalar, ish haqi va stependiyalarni bosqichma-bosqich oshirishga amaliy ishlar qilinmoqda. Buning uchun esa, ijtimoiy o'sishga erishish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish talab etiladi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida ham **"tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini**

shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish [21] alohida maqsad sifatida belgilangan. Buning uchun esa, inson kapitalini rivojlantirish, uning salohitidan maksimal darajada foydalanish talab etiladi.

Yevropadagi liberal iqtisodiy munosabatlar hukmron bo'lgan mamlakatlarda inson kapitali bozori erkin bozorning qonuniyatlari bilan ishlaydi, ya'ni, bu bozorning yozilmagan qonunlariga ko'ra eng oddiy kollejning zukko bir bitiruvchisi transmilliy kompaniyadan ish topishi, eng mashhur universitetning bitiruvchisi esa, agar u uquvsiz bo'lsa bir necha oylab ish topolmasdan ovora bo'lishi mumkin.

2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson kapitalining sifatini oshirish, faol, intellektual boy, kognitiv xususiyatlari mukammal yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur Farmonning "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» maqsadida "yoshlarni ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash; yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoit yaratish" [22] kabi vazifalar ham belgilangan. Bu masalalarning ijrosi o'z navbatida mamlakatimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodda kognitiv xususiyatlarni yanada rivojlantirishda muhim konstruktiv ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi dunyodagi nihoyatda murakkab vaziyatda inson tez o'zgarib turuvchi vaziyatga adekvat ravishda mos bo'lishi uchun innovatsion faoliyat ham egiluvchan, o'zgaruvchan bo'lishi kerak. Innovatsion faoliyat doimo yangilanib va to'xtovsiz, muttasil samarasi oshib borishi inson tafakkuriga, uning kreativligi asosida amalga oshiriladi. Kreativ g'oyani amalga oshirilishi innovatsiyadir. Demak, innovatsiya o'z-o'zidan rivojlanish mexanizmini anglanganligini va dunyoni bilish qamrovi kengayganligini, boyiganligini bildiradi.

Inson kapitaliga investitsiyalash jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish, tahlil etish va ijodiy qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada "Xitoy tajribasi alohida e'tiborga molikdir. Xitoyning zamonaviy ta'lim tizimi o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, Osiyodagi yana bir yirik iqtisodiyotga ega mamlakat Hindistonga nisbatan Xitoy aholisi, shu jumladan, qishloq aholisining ham (aholining bu qatlami ikkala mamlakatning ham asosiy qismi hisoblanadi) savodxonligi darajasi jadal o'sib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Xitoyda katta yoshdagi aholining bor-yo'g'i 15-17 foizi savodsiz [23] hisoblanadi. (Hindistonda – 47 %; Bangladeshda – 61 %; Pokistonda – 59 %; Eronda - 27 %; Turkiyada - 17%; Indoneziya – 15%)" [24.4]. Shu ma'noda, savodlilik inson kapitlarini rivojlantirishning muhim omili va tayanch nuqtasidir.

2000-yilning 26-28-aprelida Dakar (Senegal) shahrida ta'lim bo'yicha umumjahon anjumani o'tkazilib, unda "Ta'lim – hamma uchun" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilgan 10-yillik ishlar yakunlari e'lon qilindi. Shu bilan birga anjumanda "Dakar harakat doiralari: "Ta'lim – hamma uchun" majburiyatlarimizning bajarilishi" [25.18] dunyodagi har bir fuqaro va har bir jamiyat uchun ta'lim olishning muhimligi ta'kidlandi. Dekar anjumani "Ta'lim – hamma uchun" strategiyasini amalga oshirish maqsadida "2015-yilga borib barcha bolalar, ayniqsa qizlar, noqulay muhitda yashaydigan hamda ozchilikni tashkil qilgan millatlarga mansub bolalarning bepul va yuqori sifatli ta'lim olishni ta'minlashdir" [26.18]. Darhaqiqat, bugungi globallashtirish, axborotlashgan va raqamlashgan davrda ta'lim inson kapitalini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

XXI asrda globallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan, axborotlashgan, raqamlashgan va bilim jamiyati shakllangan, davlatlar barqaror va innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishida, murakkab, tahlikali [27.287-290], ziddiyatli va nochiziqli jarayonlarda ta'lim insonlar o'z harakatlarini baholay oladigan va to'g'ri qarorlar qabul qiladigan tarzda o'zgartirishga yordam beradi. Shu sababli rivojlangan va endi rivojlanayotgan mamlakatlar ta'lim tizimiga ko'proq sarmoya sarflashmoqda. Natijada esa ta'lim insonning yangi bilimlar bilan boyishiga, yashash sharoitini o'zgartirishga, hayot faoliyatini yaxshilashga, ijodiy faoliyatini kengaytirishga, istalgan vaqtda kasbini o'zgartirishga, faoliyatiga so'nggi modeldagi texnologiyalarni qo'llash kabi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Bu esa inson kapitalini rivojlantirishda judayam muhim omillardan hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar nafaqat inson hayoti va faoliyatini balki jamiyat va davlatlarning taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2000-yilda jahon tarixida muhim voqea sodir bo'ldi. 189 ta mamlakat yetakchilari yer yuzida hayotni qanday qilib yaxshilash mumkinligi haqidagi global va muhim muammolarni muhokama

qilish uchun Mingyillik Sammitiga yig'ilishdi. Ular 2015-yilga borib yer yuzidagi nochor kishilarning hayotini sezilarli darajada yaxshilash uchun bor kuch va imkoniyatlarini ishga solish majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. Rivojlanish sohasidagi tadqiqotchilar kishilarning nochor yashashi hamda qashshoqligicha qolishi bilan bog'liq turli muammolar va ularning sabablarini o'rgandilar. Ular yer yuzidagi ko'pchilik kishilarning o'ta qashshoq va och-nahor yashashlarining asosiy sakkizta sababini aniqladilar.

Jahon yetakchilari tomonidan qabul qilingan qaror hamda belgilangan vazifalar Mingyillik Deklaratsiyasida o'z aksini topgan. Mazkur maqsadlar Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari nomini oldi. Ular amalga oshganda esa kambag'allar nisbatan mustaqillikka erishgan, turmush tarzi yaxshilangan bo'ladi. Odamlar mamlakat va jamiyat uchun yanada samarali mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dastlabki yettita asosiy maqsad qashshoqlikka barham berish, "hamma bolalarning maktabda ta'lim olishi, ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi, go'dak yoshidagi bolalar o'limini kamaytirish, onalar sog'lig'ini yaxshilash, OITS va boshqa yuqumli kasalliklarga chalinishning sonini kamaytirish" [28], shuningdek, atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan. Bular orasida sakkizinchi maqsad alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, belgilangan maqsadga faqat kuchlar o'zaro birlashganda, ya'ni rivojlanish yo'lida global miqyosdagi hamkorlik o'rnatilgan taqdirdagina erishish mumkin. Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birining amalga oshishi bevosita qolgan maqsadlarning ham amalga oshishiga bog'liqdir.

Rivojlanish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, bu esa mamlakatlar o'rtasida o'zaro savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish imkonini beradi. Savdo-sotiq ishlari qay darajada yaxshi yo'lga qo'yilsa, sotiladigan mol shuncha ko'payadi, xizmat ko'rsatish darajasi oshadi, xalqning turmush tarzi yaxshilanadi. Biroq rivojlanish doimiy bo'lishi uchun u shuncha barqaror bo'lishi va barchaga foyda keltirishi lozim. Rivojlanish bugungi avlodning talablariga javob berishi, ayni paytda kelgusi avlodning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymasligi kerak. Shu ma'noda, rivojlanish murakkab va hamkorlikdagi jarayondir. O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratayotganligi sababi ushbu mintaqaning qoq markazida joylashgan O'zbekiston uchun Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik, izchil taraqqiyot, yaxshi qo'shnichilik ana'nalarini davom ettirishga xayrirohdur.

Birgina mamlakatimizda olib borilgan yangi Taraqqiyot strategiyasi doirasidagi islohotlar ham inson kapitalini shakllanishi, rivojlanishi hamda milliy inson kapitalining rivojlanishiga yo'naltirilgan. Shu bilan birga davlat va jamiyat o'rtasida doim o'zaro aloqa bo'lishini taqozo etadi. Chunki jamiyatimiz strukturasidagi o'zgarishlar "uning elementlari bo'lgan inson, davlat, jamiyat o'rtasidagi o'zaro muloqotni, bu elementlar o'rtasidagi mavjud bog'lanish va ta'sirlarning yanada mustahkamlanishini ta'minlaydi" [29.287-290]. Bu esa inson kapitalini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi.

2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlarda inson kapitaliga alohida e'tibor qaratilgan Unga ko'ra: "inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish" [30] strategiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan. Shu ma'noda, inson kapitalidan samarali foydalanishga doir yondashuvlarni ko'rib chiqish tadqiqot maqsadiga muvofiq ish bo'ladi.

XX asr ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy, ma'naviy jarayonlarning rivojlanishi natijasida insonning takror hosil qilish aloqalariga ham e'tibor berila boshladi. Natijada, "Insoniyatni barqaror rivojlantirish" Milliy boylik konsepsiyasi" kabi nazariyalar, Birlashgan millatlar tashkiloti ekspertlari tomonidan inson salohiyatini rivojlantirish dinamikasiga ta'sirini aniqlaydigan modellar sifatida yaratildi.

Inson kapitali tushunchasini odamlar dastlab mehnatga bo'lgan qobiliyat, ta'lim va kasbiy kompetensiyalariga investitsiyalar jamlanmasi sifatida qaralgan. Keyinchalik esa inson kapitali tushunchasi kengaya borishi natijasida iste'mol xarajatlariga oilalarning ovqatlanishi, turar joy, kiyim - kechak, sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat kabi sohalarni rivojlantirish uchun davlat xarajatlari ajratila boshladi.

FALSAFA

Jamiyatni iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi faqat rivojlanishni ta'minlash vositasi bo'lib qolmasdan, balki rivojlanish maqsadiga aylanmog'i kerak. Ba'zi mutaxassislar iqtisodiy o'sishni faqat rivojlanish vositasi sifatida tushungan. Ingliz iqtisodchisi Artur Lyuis [31] rivojlanishning asosiy omili insonning tanlov erkinligini kengaytirish degan nazariyani ilgari suradi.

XXI asr bo'sag'asida iqtisodiy o'sishning o'zi asosiy maqsad emasligi ayon bo'lib qoldi. Jamiyatning daromadlari faqat vosita xolos: ular kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlariga ham, qurollanishga ham, maorifni rivojlantirishga ham, dabdabali, ammo halq farovonligiga ta'sir ko'rsatmaydigan loyihalarni amalga oshirishga ham sarflanishi mumkin. Shu sababli turli mamlakatlardagi turmush sifati har doim ham o'rtacha daromad darajasiga mos kelavermaydi. Bundan tashqari, yalpi ichki maxsulot notekis taqsimlanishi mumkin. Zero, hukumatlarning ijtimoiy siyosati faol, kuchli yoki sust, loqayd bo'lishi mumkin. Demak, yalpi ichki maxsulot darajasi ham, o'sish sur'ati ham taraqqiyot va muvaffaqiyatning asosiy mezon bo'la olmaydi. Bu haqiqatni anglab yetish natijasida yangicha yondashuv "Inson taraqqiyoti" konsepsiyasini shakllantirish imkonini berdi. Inson taraqqiyoti dastlab inson kapitali tushunchasi sifatida boholangan. Bu tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida inson taraqqiyotini inson kapitaliga nisbatan kengroq tushuncha ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Amartya Kumar Senning ilmiy asarlarida inson taraqqiyoti rivojlanish asosini moddiy farovonlik bilan baholamasdan, insonga zarur ehtiyoj va imkoniyatlarini to'laqonli ravishda takomillashtirish jarayoni sifatida tahlil etdi. Amartya Kumar Sen [32] insonni turmush darajasini baholashda jamiyatdagi daromadlarning aholi jon boshiga tushadigan o'rtacha miqdoriga qarab taqsimlash kerak emasligi, balki insonlarning o'zlari tomonidan munosib deb hisoblagan farovon turmush kechirishlari uchun bor imkoniyatlari yuzasidan baholash kerak deb ta'kidlaydi. Amartya Kumar Sen inson taraqqiyotini rivojlanishidan asosiy maqsad tovar ishlab chiqarish ko'lamini haddan ziyod ko'paytirish emas, balki odamlarga ko'proq ish bajarishi uchun bilimlarni egallashi, uzoq umr ko'rishi, kasalliklardan holi bo'lishi kabi imkoniyatlarni yaratib berish kerakligi ta'kidlaydi.

1.1-rasm

Inson kapitali va moddiy kapital orasidagi o'xshash va farq qiluvchi jihatlar

O'xshash jihatlar	Farq qiluvchi jihatlar
Ikkalasi ham takror ishlab chiqarishning asosiy omillari sifatida yuzaga chiqib, bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad bilan ta'minlaydi;	Uni insondan (ya'ni, uning egasidan) ajratib bo'lmaydi. Shu sababli almashinuvda inson kapitalidan foydalanish natijasigina ishtirok etadi;
Ikkala turdagi kapitalning shakllanishi ma'lum bir xarajatlarni talab qilinadi va joriy iste'mol zarariga katta miqdordagi vaqt va mablag'ning sarflanishi ro'y beradi;	Amal qilish davrida farqlanadi. Moddiy kapital abadiyroqdir (albatta uning har bir shakli uchun turlicha holat kuzatiladi). Masalan, pul shaklidagi moddiy kapital doimiy bo'lsa, insonda aks etgan bilim va malakasi inson o'limi bilan ma'lum bir darajada barham topadi;
Ikkala kapital turiga qo'yilmalar uzoq muddatli samara ta'minlaydi;	
U yoki bu kapital to'planishi va zaxira sifatida yuzaga chiqishi mumkin;	
Har ikkalasi pulli qiymatga ega, ulardan foydalanish natijasi esa natural yoki pulli shaklda ifodalanishi mumkin;	Undan foydalanish darajasi va miqyosi uning egasining qarori va xohish-istagiga bog'liq.
Ikkala turdagi kapital jismoniy va ma'naviy eskirish xususiyatiga ega.	

Inson kapitali nazariyasini shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratishni lozim topdik.

Birinchisiga inson kapitali bu ishchining barcha ishlab chiqaruvchanlik sifatleri yig'indisidir, degan fikr xosdir. U.Bouen "inson kapitali insonlarga berilgan va ma'lum vaqt mobaynida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan bilim, malaka, motivatsiya va energiyalar yig'indisidir, deydi" [33.362].

Ikkinchi guruh inson kapitalining "investitsion ta'riflarini" birlashtiradi (T.Shuls, G.Bekker, M.Blaug, F.Maxlup, I.Fisher va boshq.). M.Blaug "investitsion" ta'rif beradi: "inson kapitali bu insonlarning o'zicha qiymati emas balki, oldingi investitsiyalarning ularning malakalariga keltirilgan qiymatidir" [34.19]. F.Maxlup bu yondashuvni quyidagicha ifodalaydi: "insonning jismoniy va aqliy qobiliyatini ko'paytiruvchi investitsiyalar natijasida yanada samarador bo'lgan mukammal mehnatdan

nomukammal mehnatni ajratish kerak. Bunday mukammallashuv inson kapitalini tashkil etadi" [35.419]. Shuningdek, G.Bekker ham inson kapitaliga nisbatan investitsion ta'rif berib, "inson kapitali ta'lim, ishlab chiqarishda tayyorgarlik, sog'liqni saqlash, migratsiya, narx va daromad haqida ma'lumotlarni to'plashga xarajatlar shaklidagi insonga investitsiyalash yo'li bilan shakllanadigan bilim, malaka va qobiliyatlar yig'indisi sifatida ifodalanadi" [36.314]. Boshqa bir olim S.A.Dyatlov inson kapitali, deb "jamoat takror ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida maqsadli foydalaniladigan, mehnat va ishlab chiqarish unumdorligining o'z navbatida, ushbu inson daromadining oshishiga ta'sir etuvchi investitsiyalar natijasida shakllangan va inson tomonidan to'plangan sog'liq, malaka, qobiliyat va motivatsiyalar zaxirasi tushuniladi" [37.83].

Inson kapitali rivojidagi asosiy omil ta'lim sifatida ko'riluvchi nazariya "muqobil" nazariyadir (P.Tobmen, R.Xerrnsteyn va boshqalar). Unga ko'ra "insonning ta'limga tayyorgarlik darajasi uning tabiiy qobiliyatlari va oiladagi tarbiyasiga bog'liqdir. Shu sababli ta'lim bu xususiyatlarning daromadga tasir etish vositasigina xolos, deb qarashadi. P.Tobmen o'tkazgan tadqiqoti natijasida daromatlarning farqlanishining 45 % genetik salohiyat, 12 % ijtimoiy kelib chiqish va atigi 6 % ta'lim hissasiga to'g'ri kelishi aniqlandi" [38.393].

Inson salohiyati bu "harakatga keltirilishi mumkin bo'lgan va qo'yilgan maqsadga erishishda kelib chiqadigan vazifalarni yechishda ishlatilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar, manbalar, vositalar, zaxiralar va boshqalar yig'indisidir; jamiyatning alohida a'zosi, davlatning ma'lum bir sohadagi imkoniyatlari" [39.510]. Boshqa bir olim T.I.Volkovning fikricha, "umumiy holatda iqtisodiyotning rivojlanishi, xususiyl holatda jamoat ishlab chiqarishining rivojlanish jarayoni ma'lum bir bosqichda faqatgina salohiyat darajasida bo'lgan u yoki bu tizim to'plangan imkoniyat va omillarining amalda o'z aksini topishi demakdir" [40.16].

XULOSA

Inson kapitali murakkab tizim sifatida o'zining elementlariga ega. O'z navbatida ushbu elementlar tizim ostidagi elementlardan tashkil topgan. Inson kapitalining elementlar va tizim osti elementlari o'zaro bir-biri bilan qaytar aloqada bo'ladi. Bir elementning rivojlanishidagi o'zgarishlar boshqa elementlarda ham o'zgarishga olib keladi. Inson taraqqiyoti – bu insonning uzoq va samarali umr ko'rishi. Yaxshi yashashi uchun sog'lom bo'lishi, ta'lim olishi, iqtisodiy ta'minlangan bo'lishi nazarda tutiladi. Taraqqiyot shunday tanlovga ega bo'lishni taqozo etadi. Taraqqiyot jarayonida yaxshi, ijobiy muhit inson potensialini yuzaga chiqarishda, ehtiyojlarni qondirishda asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. "Inson taraqqiyoti" tushunchasi dastlab inson kapitali sifatida qaralgan. Inson kapitali tushunchasini odamlar dastlab mehnatga bo'lgan qobiliyat, ta'lim va kasbiy kompetensiyalariga investitsiyalar jamlanmasi sifatida qaralgan. Keyinchalik esa inson kapitali tushunchasi kengaya borishi natijasida iste'mol xarajatlariga oilalarning ovqatlanishi, turar joy, kiyim - kechak, sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat kabi sohalarni rivojlantirish uchun davlat xarajatlari ajratila boshladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B.104.
2. Berger G. Investment in Human Capital: A Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, 1962. Vol.70(5, Part 2, Supplemrt), Pp.9-49.
3. Schults T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review, 1961. Vol.51(1), -Pp.1-17.
4. Blaug M. The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey // Journal of economic literature. 1976. Sep 1, 14(3), -Pp.827-855.
5. Симкина, Л.Г. Человеческий капитал в инновационной экономике. – СПб.: СПбГНЭА, 2000. - 48 с.
6. Корчагин Ю.А. Человеческий капитал и инновационная экономика России. Монография. – Воронеж: ЦИРЭ, 2012.
7. Скоблякова И.В. Циклы воспроизводства человеческого капитала. Монография. – М.: Манинстроение-1, 2006. 196 с.
8. Abdullayeva M.N., G'affarova G.G'. Inson kapitali ta'lim prizmasida // Globallashuv sharoitida O'zbekistonda innovatsion g'oyalarning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-falsafiy, ta'limiy yo'nalishlarining rivojlanish istiqbollari: Respublika onlayn anjuman materiallari. – Toshkent, 2020.
9. G'affarova G.G. Human capital as the basis of society development // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. –USA, Harrisburg, 2021. №04(96), -P.455-460.
10. Sharipov M. Intellektual inson kapitalining mohiyati, manbalari va xususiyatlari // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.694-703.; Sharipov M. Sog'liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalari va ahamiyati // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.710-719.
11. Деева Т.М. Выбор образовательного учреждения как один из основных факторов формирования и пополнение человеческого капитала // Вестник экономической интеграции, 2009. №6, -С.12-17.

FALSAFA

12. Schults T. Capital. Formation by Education // Journal of Political Economy, 1960. Vol.68. No6, -P.554.
13. Экономическая теория. Трансформирующая экономика. / Под ред. Николаевой И. П. — М.: Юнити, 2004.
14. Человеческий капитал: теория, исторический опыт и перспективы развития. Монография. — Москва: РУСАЙНС, 2017. — С.12.
15. [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // www.https://uza.uz](https://uza.uz)
16. Centre research civil society of University name Johns Hopkins (USA), Institute of Central Asia, European Union Institute for Security Studies (France), Institute of Academy for study modern international relations Europe and Asia (China), Osaka University (Japan), Civil Society Fund Friedrich Ebert, Berlin Civil Society Center (Germany).
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni // www.lex.uz (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni // www.https://lex.uz
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — Toshkent: "O'zbekiston", 2020. — B.20.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — Toshkent: "O'zbekiston", 2020. — B.20.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. // www.https://lex.uz.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. // www.https://lex.uz.
23. <http://www.portalchina.ru/articles/education-system.html>
24. Oripova Z. D. Xitoyda inson kapitaliga investitsiyalarni yo'naltirish //Zamonaviy ta'lim, 2014, 6-son, - B.4.
25. Дакарские рамки действий. Образование для всех: выполнение наших общих обязательств // Текст, принятый Всемирным форумом по образованию Дакар, Сенегал, 26-28 апреля 2000 г. — Париж, 2000. — С.18.
26. Дакарские рамки действий. Образование для всех: выполнение наших общих обязательств // Текст, принятый Всемирным форумом по образованию Дакар, Сенегал, 26-28 апреля 2000 г. — Париж, 2000. — С.18
27. Qarang: Тихонова С.В., Фролова С.М. Цифровое общества и цифровая антропология: трансдисциплинарные основания социально-эпистемологический исследовании // Известия Саратовского университета. Серия. Философия. Психология. Педагогика. 2019. Т.19. вып.3, -С.287-290.
28. <http://ziyouz.uz/yangiliklar/bmt-mingyillik-maqсадlari-muvaffaqiyat-va-muammolar>
29. Qarang: Mamayusupov U.Q. Bashoratning nazariy-metodologik asoslari va uning ilmiy bilishdagi o'rni: Diss.ya avtoreferati fals.f.b.f.d. (PhD). — Toshkent, 2019. — 48 b.
30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // www.https://lex.uz
31. Ser Uilyam Artur Lyuis (Sir William Arthur Lewis, 1915-199) — ingliz iqtisodchisi, "rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan iqtisodiy rivojlantirishning novatorlik tadqiqoti uchun" 1979 yilgi Nobel mukofotining laureati. Asosiy asarlari:"Iqtisodiy rejalash prinsiplari" ("The Principles of Economic Planning", 1949), "Iqtisodiy o'sish nazariyasi" ("The Theory of economic Growth", 1955)
32. Амартия Сен. Развитие как расширение человеческого выбора, 1989.
33. Bowen H. Investment in learning — San Francisco 1978. P.362
34. Blaug M. An Introduction to the Economics of education.-L. 1970. P.19.
35. Machlup F. The Economics of Information and Human Capital. —Princeton,- 1984. P.419.
36. Экономика народного образования. Учебник для студентов педвузов. Под. ред. Костяняна С. Л. 2 — е издание. М., 1986.с.314
37. Дятлов С.А. Основы теории человеческого капитала. СПб: изд-во УЭФ.1994. с.83.
38. Taubman P. The Relative Influence of Inheritable and Environmental Factors and the Importance of Intelligence in Earnings Functions. — in personal Income Distribution. Ed. W. Krelle, Amsterdam, 1978, p. 393.
39. Большой экономический словарь/ Общ. ред. А.Н.Азрилияна. М.: Фонд "Правовая культура", 1994. С. 510.
40. Волкова Т.И. Воспроизводство творческого потенциала науки. Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2004. С. 16.